

PEDAGOGIK TAYYORGARLIKNI TAKOMILLASHTIRISH

Jahonova Xolida G'anisherovna

Termiz davlat pedagogika insituti 3-kurs talabasi

E-mail: xolidajahonova0@gmail.com

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada oliy ta'lim muassasasi, pedagog kadrlar tayyorlash tizimi, pedagogik amaliyot, innovatsion yondashuv, tizimli rivojlantirish, o'zlashtirish darajasini baholash, oliy ta'limda ta'lim sifatini oshirishda, shuningdek, tahliliy tafakkuri rivojlangan, ijodkor, raqobatbardosh zamonaviy kadrlarni yetishtirishda to'g'ri yo'lga qo'yilgan ta'limning muhim ahamiyati, pedagog shaxsida pedagogik mahoratni shakllantirish, pedagogik innovatsiyalar, kasb-hunar ta'limi boshqaruv hamda pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish to'g'risida so'z boradi.

Kirish so'zlar: pedagog, oliy ta'lim, pedagogik mahorat, innovatsion yondashuv, pedagog kadr, o'qituvchi, ta'lim dasturlari, pedagogik qobiliyat, kasbiy tayyorlik.

АННОТАЦИЯ

В данной статье высшее учебное заведение, система подготовки учителей, педагогическая практика, инновационный подход, системное развитие, оценка уровня мастерства, повышение качества образования в высшей школе, а также развитое аналитическое мышление, творческое В современной, конкурентоспособной, обсуждается важное значение правильного образования в подготовке кадров, формировании педагогического мастерства в личности педагога, педагогических инновациях, управлении профессиональным образованием, переподготовке педагогических кадров и повышении их квалификации.

Ключевые слова: педагог, высшее образование, педагогическое мастерство, инновационный подход, педагогические кадры, преподаватель, образовательные программы, педагогические способности, профессиональная подготовка.

ABSTRACT

In this article, the higher education institution, teacher training system, pedagogical practice, innovative approach, systematic development, evaluation of the level of mastery, improving the quality of education in higher education, as well as

advanced analytical thinking, creative, competitive modern the important importance of the right education in the training of personnel, the formation of pedagogical skills in the personality of the pedagogue, pedagogical innovations, management of vocational education, and retraining of pedagogic personnel and improving their qualifications are discussed.

Keywords: pedagogue, higher education, pedagogical skill, innovative approach, pedagogical staff, teacher, educational programs, pedagogical ability, professional preparation.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Pedagogik ta’lim sifatini oshirish va pedagog kadrlar tayyorlovchi oliy ta’lim muassasalari faoliyatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2022-yil 22-iyundagi PQ-289-sonli qarori pedagog kadrlar tayyorlovchi oliy ta’lim muassasalarini tizimli rivojlantirish va ularda boshqaruv faoliyatini takomillashtirish, ilg‘or xorijiy tajribalarni joriy qilgan holda zamonaviy ta’lim dasturlarini ishlab chiqish, yuqori malakali professional kadrlar tayyorlashni yangi bosqichga ko‘tarish, shuningdek, pedagogika sohasida ta’lim, ilm-fan va amaliyot uyg‘unligini ta’minlash maqsadida qabul qilingan.

Pedagogik ta’lim tizimi zamon talablariga javob beradigan, bo‘lajak o‘qituvchilarni kasbiy-innovatsion faoliyat olib borishga tayyorlash uchun zamonaviy o‘qitish tizimining yangi, ilmiy asoslangan model va texnologiyalarini taklif qilgan holda taraqqiy etib bormoqda. Zamonaviy sharoitlarda tobora ortib borayotgan pedagogika sohasining maqomi va mazkur yo‘nalishdagi malakali mutaxassislarga bo‘lgan talabning ortib borishi, oliy pedagogik ta’limning yaxlit tizimida ularning kasbiy-pedagogik tayyorgarligini zamon talablari darajasida modernizatsiyalash zaruratini belgilaydi. Oliy ta’limda bo‘lajak o‘qituvchilarni pedagogik – innovatsion faoliyatga tayyorgarligini takomillashtirish jarayoni uzluksiz ta’lim tizimini modernizatsiyalashning umumiy qoidalariga asoslanadi.

Bo‘lajak mutaxassislarni innovatsion yondashuv asosida pedagogik amaliyotini takomillashtirish texnologiyasi oliy ta’lim muassasalari oldidagi muhim vazifalardan biridir. Bugun mamlakatimiz ta’lim tizimida innovatsion texnologiyalarga asoslangan ta’lim-tarbiya tizimini takomillashtirish, uning milliy zaminini mustahkamlash, ijtimoiy faol va malakali raqobatbardosh kadrlar tayyorlashni jahon andozalari darajasiga chiqarish dolzarb masalalardan biridir. Ta’lim sohasidagi sifat o‘zgarishlari va yuqori samaradorlik ularning jahon ta’lim talablari bilan mosligi va pedagoglarning kelgusi mehnat faoliyatlarida o‘zlashtirgan kompetentsiyalari qay darajada amaliyotga tatbiq qilinayotganligiga bog‘liq. Bu haqda, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 11-maydagi “2022–2026-yillarda xalq ta’limini rivojlantirish bo‘yicha milliy dasturni tasdiqlash

to'g'risida"gi PF-134-sonli Farmonining 7-bandida hamda 2022-yil 21-iyundagi "Pedagogik ta'lim sifatini oshirish va pedagog kadrlar tayyorlovchi oliy ta'lim muassasalarini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-289-Qarorining 2-bandida pedagog kadrlar tayyorlovchi oliy ta'lim muassasalarini kunduzgi ta'lim shaklida tahsil olayotgan 2-4-bosqich talabalarini uchun haftalik o'quv mashg'ulotlari "4+2" tartibida, shu jumladan, darslarning 4 kuni oliy ta'lim muassasasida, 2 kuni maktabgacha va umumiy o'rta ta'lim muassasalarida amaliyot o'tash tartibida olib borilishini ta'minlash vazifasi ko'rsatilgan.

Pedagogik innovatsiya – bo'lajak mutaxassislarni yangicha sharoitlarda ishlashga tayyorlovchi jarayon bo'lib, u oldingi egallangan bilimlar asosida ta'limda sifat jihatidan o'zgarishlar qilib, yuqori samaradorlikka erishishga yangicha yondashuv qilishdan iboratdir. "Innovatsion yondashuv" tushunchasining pirovard maqsadi ta'lim sohasida o'quv-tarbiya jarayoni natijasini kafolatlaydigan o'zgarish, yangilanishlar kiritishdan iboratdir. Pedagogik innovatsiyalar tegishli sohada ijobiy o'zgarishlarni sodir etish, sifat jihatdan yuqori natijalarga erishish maqsadida qo'llaniladi. Pedagogik oliy ta'lim muassasalarini talabalarining pedagogik amaliyoti professional pedagogik kadrlar tayyorlashning muhim omili hisoblanadi. Zero, bilim xazina bo'lsa, shubhasiz, uning eshigini ochadigan kalit bu – amaliyot, amaliy ta'limdir. Hozirgi vaqtda pedagogika yo'nalishidagi oliy ta'lim muassasalarida amaliy tayyorgarligi yuksak, professional pedagogik kadrlar tayyorlash muammosi eng dolzarb masalalardan biridir. Globallashtirish, ayniqsa, pedagogik ta'limdagi keyingi islohotlar jarayonining tezlashishi, zamonaviy o'qitish texnologiyalar paydo bo'lishi va axborotkommunikatsiya texnologiyalaridan amaliyotda keng foydalanish bilan bog'liq holda, ushbu muammo yanada keskinlashdi. Oliy ta'lim tizimida mutaxassislarni tayyorlash asosan ikki muhim bo'g'in: ilmiy-nazariy va amaliy tayyorgarlikdan iborat. Amaliy tayyorgarlik nazariy bilim va ko'nikmalarni qo'llashni uzluksizligi va uzviyligidan iborat bo'lib, ko'p jihatdan ta'lim jarayonida tashkil etiladigan malakaviy ishlab chiqarish amaliyoti samaradorligiga bog'liq.

Bugungi kunda innovatsion axborot texnologiyalarini ta'lim jarayoniga integratsiya qilishga qiziqish ortib bormoqda. Ta'lim jarayoniga zamonaviy axborot texnologiyalarini qo'llash, o'quvchilarga o'rganayotgan bilimlarini o'zlari qidirib topib, mustaqil bajarib-o'rganib, xulosa chiqarish va tahlil qilish imkoniyatlarini beradi. Bunday pedagogik jarayonda o'qituvchi o'quvchilarni har tomonlama barkamol shaxs sifatida bilim olishiga texnologiyalarning ta'limiy va tarbiyaviy ahamiyatiga e'tibor bermog'i lozim. Mazkur mulohazalar albatta bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini metodik tayyorgarligini takomillashtirishda zamonaviy yondashgan holda o'quvchilarni tayyorlashga o'rgatishda o'z samarasini beradi.

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini metodik tayyorgarligini takomillashtirishda albatta fanlararo integratsiyaga alohida e'tibor qaratish aloxida axamiyatga ega.

Xususan, Sh.S.Abduraimov o'z ilmiy izlanishida shunday fikrlarni keltiradi: "Integratsiya, fanlararo aloqadorlik, o'zaro aloqadorlik, uzviylik kabi tushunchalar pedagogikada keng ko'llanilsa-da, biroq ko'plab o'qituvchilar ularni deyarli bir xil tushuncha deb tushunadilar. Holbuki, bu tushunchalar ma'no jihatdan bir-biridan farq qiladi. So'nggi vaqtlarda predmetlararo aloqadorlik va integratsiya munosabatlarini talqin etish borasida yangi qarashlar kelib chiqmoqda. Pedagog kadrlarni tayyorlash va fanlar integratsiyasini amalga oshirishda umumkasbiy va ixtisoslik fanlar blokidan o'rin olgan fanlarning ulushi aloxida axamiyatli. Bo'lajak o'qituvchilarning fanlar integratsiyasi bo'yicha o'zlashtiradigan nazariy bilimlari, fanlararo bog'lanishlarni amalga oshirish ko'nikmalarini shu fanlarni o'rganish jarayonida egallab boradilar. Umumkasbiy fanlar blokidagi psixologiya va pedagogika fanlarini o'qitishda bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida kasbiy sifat va kasbiy tayyorgarlikning tarkibiy qismlarini shakllantirishga e'tiborni qaratish, yuqori darajada psixologik-pedagogik tayyorgarlikka erishishi orqali ilmiy-metodik tayyorgarlikka asos yaratishni nazarda tutish zarur. Fanlarni o'qitishda kasbga yo'naltirish, fanlar integratsiyasini amalga oshirish va talabalarning ilmiy tayyorgarligini ilmiy metodik tayyorgarlik bilan uyg'unlashtirish, matematika va umumkasbiy fanlar bilan integratsiyasini amalga oshirish orqali talabalarda muayyan bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirish va bog'liq ravishda metodik tayyorgarlikning tarkibiy qismlari bo'lgan g'oyaviy-siyosiy, ma'naviy-axloqiy, ilmiy-nazariy, psixologik-pedagogik tayyorgarlik darajasini orttirishga poydevor tayyorlanadi" Ushbu mualliflar tomonidan ilgari surilgan fikr va mulohazalarni qo'llashda albatta bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida zamonaviy bilimlarni egallashda, axborot texnologiyalaridan oqilona foydalanishda, pedagogik mahoratini oshirishda, xalqaro tajribalardan foydalangan holda o'quvchilar bilimlarini baholashda intellektual qobiliyatlarini shakllantirishlari lozim.

O'qituvchi - pedagogik va psixologik jihatdan o'z ixtisoslig bo'yicha maxsus ma'lumotga ega, kasbiy tayyorgarlikka va yuksak axloqiy fazilatlariga boy, ta'lim muassasalarida faoliyat ko'rsatuvchi shaxsdir. O'qituvchi ta'lim jarayonida o'qitish shakllarini optimal darajada tashkil etish, barkamol shaxsni shakllantirish nazariyasini turli yangi g'oyalar bilan boyitishni puxta bilishi lozim. Hozirgi kunda o'qituvchining pedagogik mahoratida "Bilish, tushunish, qo'llash, tahlil qilish, sintez qilish baholash" kabi didaktik qonuniyatlar ta'im berishning muhim katego riyalari sifatida e'tirof etilgan. Shaxsga ta'lim-tarbiya berish nihoyatd; murakkab jarayon, qadimdan ushbu faoliyatga jamiyatning yetuk arboblari jalb etilgan. Mazkur holat yosh avlod tarbiyasi, uni tashkil etish mazmun va nafaqat shaxs kamoloti, balki jamiyat taraqqiyotini ham belgilovchi muhim ahamiyatga molik boigan omil ekanhgi

ta'kidlanadi. O'zbekiston Respublikasida ta'im tizimiga bevosita dahldor barch; sohalami butunlay isloh qilishga nisbatan jiddiy talablar qo'yilgan Chunonchi, bu borada o'zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti I.A. Karimov quyidagilarni qayd etadi: "Ta'lim islohoti bizni demokratik o'zgarishlar yangi jamiyat barpo yetish yo'lidan dadil yetaklovchi, barchamizn harakatlantiruvchi ichki kuch bo'lmog'i zarur. Har birimizga... ayo) bo'lsin, ta'lim-tarbiya tizimini o'zgartirmasdan turib, odamlar ongini demakki. ularning turmush tarzini ham o'zgartirish mumkin emas"

Pedagogikada o'qituvchi qobiliyati – bu imkoniyatdir, uning mohirligi zaruriy darajasi faqatgina o'qitish va tarbiyalash jarayonida takomillashib boradi va yutuqlarga erishishida zamin yaratadi. Tug'ma qobiliyatlar zehn deyiladi. Iqtidor, iste'dod, daholik – insonning ijodiy faoliyati jarayonida erishiladigan qobiliyatlarning rivojlanish bosqichlari hisoblanadi. Qobiliyatlar xarakter kabi, shaxsning faqatgina ma'lum faoliyatidagina mavjud bo'lgan sifatlardir. Psixologiyada qobiliyat – insonning kasbiy bilim, ko'nikma va malakalarni qiyinchiliksiz, osonlik bilan mukammal egallashi va biror faoliyat bilan muvaffaqiyatli shug'ullanishiga aytiladi. U o'qituvchining kasbiy faoliyatida ham yorqin namoyon bo'ladi. Kasbiy faoliyatning ta'lim mazmunini belgilovchi sifatlari o'qituvchining ijodkorligida namoyon bo'ladi. Ijodkorlik – bu sifat jihatidan yangi, original va takrorlanmas biror yangilikni paydo qiluvchi faoliyatdir. Mahsuldor ijodkorlikda belgilangan har qanday muammo muvaffaqiyatli hal qilinadi; ijod qilishga layoqatli bo'lgan o'qituvchilarning asosiy qismida bu jihatlar namoyon bo'ladi. Evristik ijodkorlik, jamiyatda ro'y berayotgan kasbiy faoliyatga oid yangiliklarni dadil o'zlashtirish va targ'ib qilishni anglatadi, ya'ni uning asosida g'oyalar (farazlar) hosil qilish jarayonini intensivatsiya qilish va ularning haqiqatga yaqinligini (ehtimoligini, ishonchliligini) izchil amalga oshirish va bunda yangi holatda dadil harakat qilish qobiliyati, fikrlash jarayoni asosida tafakkurni rivojlantirish kuzatiladi. Kreativ ijodkorlikda o'qituvchi ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan yangi nazariyalarni yaratadi, o'z fikrlari va takliflari bilan chiqadi, mohir va tajribali, layoqatli o'qituvchilargina bunga erishishi mumkin. Tabiiy anatomik-fiziologik layoqat nishonalari qobiliyatlarning fiziologik asosini tashkil etadi. Keyinchalik qobiliyatga aylanadigan layoqat nishonalarning majmui insonning iste'dodi deyiladi. Insondagi bilish va layoqat nishonalari jarayonlarining yig'indisi, iste'dodining yuksak cho'qqisi – uning intellektini belgilaydi. "Intellekt – bu aqlan ish ko'rish, ratsional fikrlash va hayotiy muammolarni mohirona hal qilishning global qobiliyati" (Veksler), ya'ni intellekt insonning atrof muhitga to'liq moslasha olish qobiliyati deb qaraladi.

Xulosa qilib aytishimiz mumkinki, pedagogik ta'lim tizimi, zamon talablariga javob beradigan, bo'lajak o'qituvchilarni kasbiy-innovatsion faoliyat olib borishga tayyorlash uchun zamonaviy o'qitish tizimining yangi, ilmiy asoslangan model va

texnologiyalarini qilgan holda taraqqiy etib bormoqda. Zamonaviy sharoitlarda tobora ortib borayotgan pedagogika sohasining maqomi va mazkur yo‘nalishdagi malakali mutaxassislariga bo‘lgan talabning ortib borishi, oliy pedagogik ta‘limning yaxlit tizimida ularning kasbiy-pedagogik tayyorgarligini zamon talablari darajasida modernizatsiyalash zaruratini belgilaydi. Oliy ta‘limda bo‘lajak o‘qituvchilarni pedagogik – innovatsion faoliyatga tayyorgarligini takomillashtirish jarayoni uzluksiz ta‘lim tizimini modernizatsiyalashning umumiy qoidalariga asoslanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI: (REFERENCES)

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 11-maydagi “2022– 2026-yillarda xalq ta‘limini rivojlantirish bo‘yicha milliy dasturni tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-134-sonli Farmoni (Qonunchilik ma‘lumotlari milliy bazasi, 11.05.2022-y.,06/22/134/0407-son)
2. 2022-yil 21-iyundagi “Pedagogik ta‘lim sifatini oshirish va pedagog kadrlar tayyorlovchi oliy ta‘lim muassasalarini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi PQ–289-Qarori (Qonunchilik ma‘lumotlari milliy bazasi, 22.06.2022-y.,07/22/289/0562-son)
3. A.Xoliqov “Pedagogik mahorat”- Toshkent. 2011
4. R.Ishmuxamedov, A.Abduqodirov, A.Pardaev Tarbiyada innovatsion texnologiyalar (ta‘lim muassasalari pedagog-o‘qituvchilari va guruh raxbarlar uchun amaliy tavsiyalar). –T.: Iste’dod, 2010. -141-b
5. <http://www.uzedu.uz> - O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta‘limi vazirligi sayti